



“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYO‘TI

Mazkur uslubiyot “O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatiga (keyingi o‘rinlarda Jamiyat) yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha qoidalarni belgilab beradi hamda Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Jamiyatning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash xamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga karshi kurashish bo‘yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati;

korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-xarakatlarni sodir etish extimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi - davlat tashkiloti faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas‘ul bo‘lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari amalga oshirishga mas‘ul ijrochilarni o‘z ichiga olgan jujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash - davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo‘yicha faoliyat;

qoldik xavf-xatar - aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo‘linma - Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat bo‘limi xodimi.

4. Jamiyat tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash xar yili 1 marta g a qadar amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (matnda - Agentlik deb yuritiladi) Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi mumkin.

2- bob. Jamiyatda Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

5. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash barcha funksiyalarni qamrab olishi lozim.

6. Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo‘linma tomonidan amalga oshiriladi.

7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Jamiyat maxsus bo‘lim tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini aniqlash va baholash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi

8. Maxsus bo‘lim tomonidan Jamiyat faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

9. Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbaalari asosida aniqlanadi.

10. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Jamiyat faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;

ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruv materiallari;

odob-ahloq komissiyasi majlislarining Yig‘ilish bayonnomalari;

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

maxsus bo‘lim tomonidan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

11. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi huquqbuzarliklar bo‘yicha murojaatlar (xabarlar) va statistik ma‘lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

12. Maxsus bo'lim Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Jamiyatning xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

Jamiyat tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

xujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda maxalliychilik, xomiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

13. Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

past;

o'rta;

yuqori.

14. Maxsus bo'lim tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari

15. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy xujjatlar hamda ichki idoraviy xujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qiskartirish va Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

Jamiyat xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan xujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki xujjatlarga to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish;

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

17. Jamiyatning maxsus bo'limi tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

18. Jamiyat maxsus bo'limi tomonidan ushbu Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

19. Maxsus bo'lim tomonidan Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-anticor.uz" elektron platformasiga xar yili **1 fevralga** qadar kiritiladi.

20. Jamiyatning maxsus bo'limi tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi xujjatlar shakllantiriladi:

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestrini shakllantirish va yuritish tartibi

21. Agentlik tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirilgan Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri shakllantiriladi.

22. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri loyihasi Agentlik tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun o'n besh kundan kam bo'lmagan muddatga "E-anticor.uz" veb-saytiga joylashtiriladi.

23. Agentlik jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab o'n kun ichida "E-anticor.uz" elektron platformasi orqali Jamiyatga yuboradi.

24. Jamiyat markaziy apparatining maxsus bo'limi Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida tashkilotning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

25. Jamiyat boshqaruv raisi xar yili **1 martga qadar** korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini "E-anticor.uz" elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik xujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

**Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo‘yicha
MEZONLAR**

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	Nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyhasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-xarakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O‘rta	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	Nazorat tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyhasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-xarakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq avtomatlashtirilgan
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) to‘liq tartibga solingan
	Jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	Davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyhasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-xarakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot mavjud emas

* Maxsus bo‘linma tomonidan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) aniqlangan xavf-xatarini yuqori yoki o‘rta darajada deb baholash takshilot rahbari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

* Tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) aniqlangan xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo‘lsa, o‘sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past deb baholanadi.

“TASDIQLAYMAN”

Jamiyat Boshqaruv raisi

_____ F.I.Sh

“ _____ ” _____ 20__ yil

Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning XARITASI

t/r	Korrupsiyaviy xavf-xatar tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Mas’ul ijrochilar
1	1. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*						
	1. Davlat tashkiloti funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						
2	2. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*						
	1. Tashkilot funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

“O‘zenergosotish”AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyotiga 4-ilova

**Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

t/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ul